

ISHLATILISH DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSEMALAR ABDULLA QODIRIYNING “ULOQDA” HIKOYASI MISOLIDA

Allanazarova Noriniso Oybek qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

allanazarovanorinsa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalarning nutqda qo‘llanilishi yoritilgan bo‘lib, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi tahlilga olingan. Ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, hamda uslubga xos so‘zlar orqali ma‘lum davrni o‘quvchiga tushunarli yoritib bera olish qobiliyati tahlillar misolida asoslangan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, “Uloqda” hikoyasi, dialektizm, terminlar, kasb-hunar leksikasi, vulgarizm, arxaizm, farafraza, argotizm va jargonlar.

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar dialektga, kasb-hunar leksikasiga va jargon-argolarga xos so‘zlardir. Jonli so‘zlashuvda ishlatiladigan vulgarizmlar ham qo‘llanishi chegaralangan lug‘aviy birliklar sanaladi⁴.

Dialektlarga xos so‘zlar qo‘llanishi makonga ko‘ra chegaralangan leksemalardir. Bunday so‘zlar leksik dialektizmlar sanaladi. Ular ikki xil bo‘ladi:

a) Dialektizm-so‘z. Bunda so‘zning ifoda plani, demak, nomemasi shevaga xos bo‘ladi. Hikoyadagi: “-Yo‘l bo‘lsin, boyvachcha? -deb so‘radi mendan yana biri. Men uyalinqiramdim.” parchasida “uyalinqiramq” so‘zini bunga misol qilsak bo‘ladi.

b) Dialektizm ma‘no. Bunda leksemaning ifoda plani emas, ma‘nosi-sememasi shevaga xos bo‘ladi.

“ -Bu hafta yordamlashasiz-da, karvon! -dedi kulibsirab To‘g‘on aka.”

Ushbu gapdagi "karvon" so‘zi parchada har doimgi

ma‘nosidamas, balki biror shaxsga mutojaat qilish uchun ishlatilgan.

Dialektizm hodisasi tilning fonetik va grammatik sathlarida ham bor.

a) fonetik dialektizmlar dialektga xos nutq tovushlari yoxud so‘zning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi. “Otangga rahmat, xuddi o‘sha yigit, qancha so‘rog‘lasam hech kimdan daragini bilolmadim.” - bu parchadagi “so‘rog‘lasam” so‘zi odatda “so‘roqlasam” ko‘rinishida ishlatiladi.

⁴ 1. H.Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin"-2005. -B.198

b) grammatik dialektizmlar- biror shevaning o‘zigagina xos grammatik shakllar.

Bunday dialektlarga “Uloqda” hikoyasidagi bir qancha so‘zlarga -cha qo‘shimchasi qo‘shilishini olsak bo‘ladi.

-cha qo‘shimchasi so‘zlarga kichraytirish-erkalash ma’nolarini beradi. “Ulug‘ hayitdagi hayitlikka olingan mo‘g‘ul egarcha bilan g‘alaticha qilib toychamni egarladim.”

- bu gapdagi “egarcha”, “g‘alaticha”, “toycha” kabi so‘zlar qo‘llanilishi faqatgina shu hikoya uchun hosdir.

Hikoyadagi voqealar bola tilidan, personaj tilidan aytilgani uchun hikoyadagi so‘zlar ham bolaga xos tarzda o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi so‘zlarning hikoyada "to‘racha", “qashqacha”, “toycha” kabi ko‘rinishlari ham uchraydi. Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlardan badiiy asar tilida uslubiy vosita sifatida foydalanish hollari ham uchraydi.

Hikoyadagi: “-Xuddi bodirafrafdek uchadi !”, “ - Bodirafrafmi, bodisarsar”

kabi dialoglardagi “bodirafraf” hamda “bodisarsar” so‘zlari maqtov ma’nosida ishlatilgan. Bunday dialektlardan unumli foydalanish obraz nutqining tipik va ta’sirchan bo‘lishiga yordam bergan.

Tilning lug‘at boyligida leksik dialektizmdan tashqari, frazeologik dialektizm ham uchraydi. “Oyog‘ing olti, qo‘ling yetti bo‘lib qoldiyov” -bu hikoyada kinoya ma’nosida qo‘llanilgan.

Hikoyada hikoya mavzusiga mos farafrazalardan ham unumli foydalanilgan. Har bir tilda mutaxassislar tasviriy ifoda yoki farafraza deb ataydigan iboralar qatlami borki, ular yordamida fikrimiz obrazli va ta’sirchan ifodalanadi. “U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi!” - gapdagi “uloqning piri” birikmasini farafraza sifatida olamiz. Hikoyada qahramonlar Mahkamning bobosini - uloqning biri deb bilishgan.

Kasb-hunar leksikasi ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot, san’at va shu bir qancha sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir. Kasb-hunar leksikasi, asosan, muayyan sohaga oid og‘zaki va yozma matnlarda faol qo‘llaniladi, umumtil doirasida esa ular ancha passiv bo‘ladi⁵.

Bunday qatlam leksemalarning ishlatilish doirasidagi chegaralanish shu bilan belgilanadi. Hikoyada o‘z nomidan kelib chiqqan holda uloqqa, otga oid leksemalardan unumli foydalanilgan.

“Quyushqoni ham o‘rnida, egar ham yaxshi qo‘ngan, qorinbog‘i ham jips, yugan ham to‘ralarnikidek! Lekin umildirig‘ining yo‘qligi biroz ko‘nglimni g‘ash qildi”.

⁵ H.Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin"-2005. -B.201

“-dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqib, tashqariga chiqdim”.

“-uloqning solig‘ini yig‘ayotibdilar”

“-yana uloqni buydalashadilar”.

Yuqoridagi parchalarda kasb-hunarga xos leksemalardan, terminlardan unumli foydalanilgan va bu hikoyaning uslubiy bahosi oshishiga xizmat qilgan.

Argotizm va jargonizmlar - biror argo yoki jargonga xos leksemalar. Argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning “yasama til”idir.

Argotizm yashirin ma’no ifodalaydi.

Jargonizmlarda yashirin ma’no bilan birga tinglovchini yoki o‘zga bir shaxsni kamsitish yoki uning xislatlarini bo‘rttirib baholash ottenkalari ham mavjud bo‘ladi. Argotizm va jargonizmlar, asosan, jonli so‘zlashuvda, tor doirada ishlatiladi⁶.

“Qorasi Salimmi, cho‘tiri?” ,

“Ko‘k chovkarni aytasanmi, to‘ruqnimi?”, "Haydar soqov bo‘lsa Eson ko‘knorning o‘g‘lini so‘ka-so‘ka ...-dedi ".

Hikoyada yuqoridagi kabi parchalarda kishilarga laqab qo‘yish ko‘rinishidagi argo va jargonlardan foydalanilgan. Bu orqali hikoyachi o‘quvchiga personajlarning sifatlarini ochib berishga uringan.

Vulgarizmlar - haqorat ma’nosida qo‘llanadigan so‘zlardir. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma’nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so‘zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. "Qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan" - bu gapdagi "qaqshag‘ir" so‘zini vulgar leksema deb olsak bo‘ladi⁷.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi. Ayni paytda ma’lum so‘z - leksemalarining eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug‘at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.

Leksik arxaizmlar - hozirgi paytda mavjud bo‘lgan voqelikning eskirgan nomi yoki , aksincha, hozirgi tilda mavjud bo‘lgan leksemaning eskirgan ma’nosi. Demak, eskirish jarayoni leksemaga yaxlit holda yoki uning bir qismiga aloqador bo‘ladi, shunga ko‘ra leksik arxaizm ikki turga bo‘linadi⁸.

1. Arxaizm-leksema - hozirgi paytda mavjud bo‘lgan voqelikning eskirgan nomi. "...keyin otga minsak chin to‘racha bo‘lamiz-da!" -gapdagi "to‘ra" so‘zi hozirgi kunda

⁶ H.Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin"-2005. -B.202

⁷ H.Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin"-2005 -B.203

⁸ H.Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin"-2005. -B.205

yuqori tabaqaga mansub kishini bildiradi. Hikoyada esa "to‘ra" hurmat qilinadigan kishi ma’nosida kelgan.

"Biz bir durkum otliq boramiz" , -bu gapdagi "durkum" so‘zi hozirgi kunda "guruh, to‘da" ko‘rinishida keladi. Hikoyada arxaik so‘zlardan unumli foydalanilgan.

Tahlil natijasidan ko‘rinadiki, har bir badiiy asarda ishlatilish doirasi chegaralangan so‘zlarni qo‘llash bu asarning o‘quvchilar orasida qiymatga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday va bu kabi so‘zlardan mahoratli foydalana olish orqali har bir ijodkor o‘z asaridagi ma’lum davrni yana ham tushunarliroq yaratib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin"-2005 - 272b
- 2.<https://n.ziyouz.com>
- 3.<https://izoh.uz/>
- 4.<https://oz.sputniknews.uz/amp/20231027/tasviriy-ifodalar-40381849.html>
- 5.<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/9657/6353>